

## O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI

**Valiyeva Vazira Renatovna**

Toshkent shahar. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar talim yo'nalishining 3-bosqich talabasi

+998909222480

### **Annotatsiya**

Hozirda biz asosan O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatorida bo'lish uchun harakatdan to'xtamasligimiz zarur. Xorijiy davlatlarda bizga qaraganda raqamli iqtisodiyot ancha rivojlangan. Iqtisodiyotning raqamlashishi bu mamlakat taraqqiyoti uchun muhim. Bugungi kunda raqamli iqtisod rivojlanishi barcha sohalar rivoji bilan chambarchas bog'liq. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Asosan bu mavzuni O'zbekistonda qanday rivojlantirish bu biz yoshlar qo'lidadir. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan. "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da xavf-xatar" (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiyot, iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiyotning globallasuvi, biznes, raqamli iqtisodiyot.

Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi. Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, kurrai zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi - 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya'ni asosan shaxsning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich milliy boyligining 77 foizi -95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari joriy yil Murojaatnomada "Eng katta boyluk - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!" degan fikrni alohida keltirib o'tdi. Bugungi kunga kelib jahonda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan 20 mamlakatda 2 trillion AQSH dollarini tashkil etayotgani hisoblab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda dunyoda peshqadam Buyuk Britaniyada esa u hozirning o'zida milliy yalpi ichki mahsulotning 12 foiziga yetdi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda 2020-yilning o'zida transport, geologiya, ta'lim, arxiv kabi sohalarni to'liq raqamlashtirish belgilangan edi. Zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-

park"lar ham fikrimiz dalilidir. Aholining barcha qismida ham raqamli malakaning yetarli emasligi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'ldagi yana bir to'siq bo'lib kelgan. Shuningdek, raqamli tovar aylanmasi ham past hisoblandi. Bu borada texnologiya olamida ko'pchilikka ma'lum bo'lgan "Microsoft" korporatsiyasi asoschisi Bill Geytsning bir fikrini eslash o'rinli: "Tez orada Yer sharida faqat ikki tur kompaniyalar mavjud bo'ladi. Birinchisi, internet orqali biznes qiluvchi va ikkinchisi, biznesdan chiqqan kompaniyalar". Tadbirkorlar mana shu jihatni inobatga olgan holda, dunyoga mashhur biznes iste'molchi uchun, biznes biznes uchun, iste'molchi iste'molchi uchun tamoyillari asosida o'z faoliyatini tashkil etishi maqsadga muvofiq. O'zbekiston raqamli sanoat bozorini shakllantirish uchun uchta muhim shartni belgilab olish zarur. Raqamli muhitni me'yoriy tartibga solish (konsepsiya, dastur va qonun), infratuzilmaviy rivojlanish (data markaz, mobil, internet, biznes va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish qurilmalari) va mutaxassislarni tayyorlash sog'lom bozorni yaratishda tirgak bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot bu - real voqe'likni to'ldirib turadigan virtual muhitdir. Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash. Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ish ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash. Horiy tajribasini hisobga olgan holda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish kabi bir qancha vazifalarni oldimizga maqsad qo'yib va uni amalga oshirish kerak. Raqamlashtirish iqtisodiyoti iqtisodiyotning alohida sohasi sifatida ikkita sababga ko'ra mavjud. Birinchidan, yangi iqtisodiy modellar kerak, chunki raqamli dunyoda ma'lumot haqidagi ko'plab an'anaviy taxminlar endi mavjud emas. Ikkinchidan, raqamlashtirish natijasida hosil bo'lgan ma'lumotlarning yangi turlari tahlil qilish uchun yangi usullarni talab qiladi. Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlagan holda qulay ekotizmni yaratishi lozim. Click, Payme, M-bank, Upay, Oson va boshqa onlayn to'lovlarga imkon beruvchi to'lov tizimlari mavjud bo'lishiga qaramay mobil to'lovlar, internet, kommunal to'lovlar uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirish ko'rsatkichi yuqori emas. 2017-yilda 34 foiz hisob egalari raqamli to'lovni amalga oshirgan. Solishtirish uchun bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 96 foizga teng. Bizda shu sohani rivojlantirib elektron tijoratni, elektron o'tkazmalarni rivojlantirishimiz zarur. Raqamli to'lov O'zbekistonda 34 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, biz bu ko'rsatkichni 100 foizga chiqarish zarur. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda beshta ustuvor "Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston xalqi farovonligi va davlatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash yo'lida yangi taraqqiyot bosqichida Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi kunga qadar yuqoridagi ikkita tamoyilga tayangan

holda iqtisodiyotni rivojlantirib, xalq farovonligini ta'minlab kelinmoqda.[1] Jaxondagi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bugungi kunlarda sur'atlar bilan namoyon bo'lmoqda. Innovatsion iqtisodiyotning dinamik rivojlanish tendentsiyasi iste'molchilar talabini to'liqroq qondirish va iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarida mehnat unumdorligini yuqori darajada oshirish imkonini beradi. Respublikamiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirishda uning an'anaviy resurslarga asoslangan modelining muhim muqobil varianti sifatida texnika va texnologiyalar, ilm-fanning oxirigi natijalari hamda yaxlit holda jamiyat hayotini uzluksiz yuksalishini ta'minlash maqsadida inson kapitalidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan innovatsion rivojlanish strategiyasiga o'tish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalar innovatsion va integratsion ijtimoiy iqtisodiyotga - egiluvchan, dinamik, samarali, doimiy yangilanib turadigan, yangicha mazmun va ko'rinishga ega bo'lgan innovatsion rivojlanish strategiyasi mos keladi. Sanoat tarmoqlarini, xususan, zamonaviy tarmoqlarni innovatsion va integratsion rivojlantirishga ham tegishlidir. Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini ta'minlanilishi hozirgi kungdagi yurtimizning barqaror rivojlantirishning asosiy dolzarb masalaridan biri. Milliy ijtimoiy va iqtisodiy izchil ravishda isloh qilish maqsadida tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, innovatsion va integratsion va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va innovatsion integratsion zamonaviy texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkinligini janoxdagi ko'zga ko'ringan assosiy va yetakchi davlatlar tajribasi ko'rsatib turibdi. Jahon bozorida narxi va sifati bo'yicha raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarur[2]. Xozirda milliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va uning zamonaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayoni uning sub'ektlari iqtisodiy faoliyatining moddiy-texnika bazasini rivojlanish darajasiga bog'liqdir, chunki korxonalar resurs salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqarorlikka erishishning shart-sharoiti va asosiy omili hisoblanadi. Mamlakat prezidenti O'zbekiston fuqarolari uchun tabiiy haq-huquq va shuningdek oliy ne'mat bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritar ekan, ya'ni uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimiz sharti, barcha islohotlarimizning mezoni va nihoyat, barcha amal qiladigan bosh tamoyil deb ta'riflanadi. Shunday ekan, u jamiyat a'zolari oldiga muttasil yangi-yangi tartibda jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda Respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda ko'plab

<https://conferencea.org>

sohalarga e'tibor qaratildi. Shu jumladan xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish uchun ham ko'plab islohotlar o'tkazildi. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora tadbirlari dasturi amalga oshirilishi doirasida 2016-yil mobaynida qonunchilik va me'yoriy huquqiy baza tashkil etish hamda uni takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Xususan qurilishning barcha bosqichlarida tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib tamoillari doirasida yagona qoida talablar belgilandi, bino va inshootlar tashqi ko'rinishini o'zgartirish, obyektlarni qayta iqtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga, turar joylarni noturar joylar toifasiga o'tkazishga ruhsat berish talablari joriy etildi. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda, tadbirkorli operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralari kuchaytirildi. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 2016-yil mobaynida kichik biznes subyektlariga 15.9 trillion so'mlik kreditlar ajratildi va o'sish 2015-yilga nisbatan 1.3 barobarni tashkil etdi. Jumladan qiymati 3.3 trillion so'mlik mikrokreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 915 206.7 million dollar miqdordagi kredit linyalari o'zlashtirildi. Qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar 2016-yil mobaynida qariyb 32 ming yangi kichik biznes sub'yekti tashkil etish imkonini berdi.[4] Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi qaytadan tiklanuvchi manbalardan energiya ishlan chiqarish yuqori texnika salohiyatiga ega bo'lib uning 97 foizi quyosh energiyasining ulushiga to'g'ri keladi. [2]O'zbekiston Respublikasining prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan mavjud salohiyatlardan samarali foydalanish maqsadida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizdan ko'prog'iga yetkazish vazifasi belgilandi. Buning uchun 10 yil mobaynida jami 5000 MVt quvvatdagi elektr stansiyalarini qurish ko'zda tutilgan. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda tomchilab sug'orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40 foizga oshirish; Yerlarning tanazzulga uchrashi bo'yicha neytral balanisga erishish; Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha hosildorligini 20-25 foizgacha oshirishga erishishdir. Shuni ham takidlash lozimki, keyingi yillarda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ham alohida etibor qaratilmoqda. Bu oilalarning barqaror daromad manbaini shakillantirish, turmush darajasini yanada yaxshilanib borishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[3]. O'zbekiston Respublikasining "Oilalaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni bu yo'nalishdagi

huquqiy asosi bo'lib xizmat qilayotir. "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi", degan tamoyilini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar izchil olib borilmoqda. Misol uchun 2012 - yilda oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun, 2012 yilda oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadlari uchun 91.3 milliard so'm kredit mablag'i ajratilgan bo'lsa, 2016-yilda ushbu raqam 367.2 milliard so'mni tashkil etdi . Bugungi kunda yurtimizda 8 mingdan ortiq oilaviy korxonalar mavjud. Tijorat banklari aholiga bank xizmatlari ko'rsatish bilan birga, ularni tadbirkorlikka jalb qilish ,daromadini oshirish, ish bilan ta'minlashda ham samarali ishlar olib borilmoqda .[3]Jumladan loyihalarda yaratilgan ish o'rinlariga qarab beriladigan kreditning yillik stavka foizi pasayib bordi. Bitta ish o'rni yaratgan tadbirkor uchun 9 foiz, ikkita ish joyi yaratganlik uchun 8 foiz beshta va undan ko'p ish o'rni yaratga tadbirkorning kredit stavkasi 6 foiz qilib belgilandi. [3]

Xulosa:

Bu loyihalardan maqsad xalqimiz farovonligini oshirish va turmush sharoitini yanada yaxshilashdir. Qay tomonga qaramaylik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganiga guvoh bo'lamiz. 2016-yilda mamlakat 916 yalpi ichki mahsulotining 56.9 foizi ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 4.5 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda jami ish bilan band bo'lgan aholining 78.1 foizi shu sohada faoliyat yuritmoqda. 2016-yilda 31.8 mingta kichik biznes sub'yektlari tashkil etildi. Bu 2015- yilning shu davridagidan 18.1 foiz ko'p demakdir Jahon bankining 2017-yil 31-oktabrda e'lon qilingan "Biznesni yuritish 2018: ish o'rinlari yaratish uchun islohatlar" ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 190 davlati ichida 74-o'rinni turadi egallab, o'tgan yildagi mavqeyini biur yo'la 13 pog'ona yaxshiladi. Qolaversa mamlakatimiz biznes yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi davlatlarning birinchi o'ntaligiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning ishbilarmonligini yaxshilash va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish bo'yicha yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida yetakchiga aylanishga imkon berdi. Tadbirkorlik subyektining davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimining tubdan takomillashtirilgani tufayli O'zbekiston korxonani ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha 11-o'rinni band etdi. 2017-yilning 9 oyi davomida o'tgan yilning shu davrdagiga nisbatan 1.3 marta ko'p biznes sub'ektlari tashkil etganining o'ziyoq mamlakatimizda biznes ochishning naqadar oson ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz xalqi shundan xursandki, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov yurtimiz ravnaqi yo'lida boshlagan samarali ishlari, yuksak azmu shijoat bilan davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ezgu sa'y harakatlari, Kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan mehnat qilib barchaga ibrat bo'layotgani O'zbekistonni istiqbolda nihoyatda farovon kunlar kutayotganidan darak beradi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Makro iqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabuk qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va

<https://conferencea.org>

institutsional o'zgarishlarini chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; Xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni taminlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish; Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish; Ishlab chiqarish modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investisiya siyosatini olib borish; Ushbu yuqorida aytilganlar orqali iqtisodiyotni bosqichma bosqich yuqori pog'onaga olib chiqish choralari amalga oshirilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi № PQ - 4477 sonli "2019 - 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.[1]
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi № 207 sonli Qarori.[2]
3. Downs, T .; Greenstein, S. (2002). "AQShdagi universal kirish va mahalliy Internet bozorlari". Tadqiqot siyosati. 31 (7): 1035-52. CiteSeerX 10.1.1.509.7345. doi:10.1016 / s0048-7333 (01) 00177-9.[3]
4. www.ziyonet.uz.[4]